# XALQ DEPUTATLARI AMUDARYO TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 31 - dekabr VI-56-134-13-181-K/22 Amudaryo tumani hokimligi

## Amudaryo tumani mahalliy budjetining 2023-yilgi asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2022-yil 30-dekabrdagi qirqinchi sessiyasining 300/XL-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asoslanib Amudaryo tumani 2023-yil uchun mahalliy budjetini qabul qilish bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Amudaryo tumani mahalliy budjetining daromadlari 77 502,418 mln.so‘m, xarajatlari 242 932,688 mln.so‘m miqdorda, respublika budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan transfertlar 165 430,270 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2022-yilgi prognoz ko'rsatkichlari, budjet mablag'lari xarajatlari ko'rsatkichlari 1-7-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi (R.Salayev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Seitov) va Moliya bo'limi (U.Bekniyazov) tuman mahalliy budjetining daromadlar qismining soliq turlari bo'yicha belgilangan rejalarining oshirib bajarilishini ta'minlasinlar.

4. Tuman Moliya bo'limi (U.Bekniyazov)ga:

2023-yilda mahalliy budjet xarajatlarini maqbullashtirish natijasida shakllanadigan manbalar hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ajratiladigan mablag'lar bo'yicha zarur tuzatishlar kiritib borish;

budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan mablag' bilan ta'minlash asoslari

mavjudligini muntazam tahlil qilib borish, ajratilgan budjet mablag'larining natijadorligiga erishilmayotgan budjet muassasalarini qisqatirish yuzasidan tuman hokimligiga takliflar kiritib borish;

tuman g'aznachilik bo'linmasi (H.Adambayev) bilan birgalikda budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish va ularning asossiz sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

Xalq deputatlari tuman Kengashiga mahalliy budjetning ijrosi to'g'risida har chorakda axborot berib borish topshirilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Salayev tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda budjet daromadlarining tasdiqlangan ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlasin.

Hududlarning soliq solish bazasi kengaytirilishi va moliyaviy salohiyati mustahkamlanishi yuzasidan zaruriy chora-tadbirlar ko'rsin, budjet mablag'laridan maqsadli foydalanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin.

6. Tuman hokimligining Axborot xizmati rahbari (F.Eshimbetova) mazkur qarorning rasmiy e'lon qilinishi va hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini, “Taraqqiyot ko'zgusi” gazetasi tahririyati (G'.Eshniyazov) ushbu qaror matnining “Taraqqiyot ko'zgusi” gazetasida e'lon qilinishini ta'minlasin.

7. Qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **S. YO‘LDASHEV**

Xalq deputatlari Amudaryo tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-56-134-13-181-K/22-son qaroriga
1-ilova

# Amudaryo tumani mahalliy budjetlarining 2023-yilgi asosiy daromad ko‘rsatkichlari to‘g‘risida

**MA’LUMOT**

**Dastlabki hisob kitoblar** **ming.so‘m**

| № | Daromad turi | Amudaryo tumani |
|---|---|---|
| | **Jami daromadlar** | **77 538 418** |
| **I.** | **Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyuщie) daromad** | **0** |
| | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | |
| | ajratma meyori | |
| 1. | mahalliy byudjetga | 0 |
| | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | |
| | ajratma meyori | |
| 2. | mahalliy byudjetga | |
| **II.** | **Biriktirilgan daromadlar** | **44 023 000** |
| | **Tuman va shaharlarga biriktirilgan** | **31 180 000** |
| 1 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 2 580 000 |
| 2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD) | 1 100 000 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 21 000 000 |
| 4 | Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda | 2 100 000 |
| 5 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 4 400 000 |
| | **Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar** | **12 843 000** |
| 1 | Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS) | |
| | ajratma meyori | |
| | mahalliy byudjetga | 0 |
| 2 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | **1 778 000** |
| | ajratma meyori | ***100*** |
| | mahalliy byudjetga | 1 778 000 |
| 3 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | **8 565 000** |
| | ajratma meyori | ***100*** |
| | mahalliy byudjetga | 8 565 000 |
| 4 | Aylanmadan olinadigan soliq | **2 500 000** |
| | ajratma meyori | ***100*** |
| | mahalliy byudjetga | 2 500 000 |
| 5 | Yig‘imlar | |

| | | |
|---|---|---|
| | ajratma meyori | |
| | mahalliy byudjetga | 0 |
| | **Viloyat byudjetiga** | **0** |
| 1 | Davlat bojlari | |
| 2 | Davlat tashkilotlari foyda solig‘i | |
| 3 | Ijara to‘lovlari | |
| 4 | Xususiylashtirish | |
| 5 | Jarimalar | |
| 6 | Boshqa tushumlar | |
| **III.** | **Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)** | **33 515 418** |
| | *Aholi soni (ming kishi)* | *206 386* |
| 15. | Aksiznыy nalog na alkogol (v t.ch. pivo) | 13 558 704 |
| 16. | Aksiznыy nalog na mobil svyaz | 5 815 896 |
| 17. | Tamaki maxsulotlari uchun aksiz solig‘i | 14 140 818 |
| | *Ma’lumot uchun: 2022 yil parametr* | *77 346 843* |
| | **Jami xarajatlar** | **242 932 688** |
| | **Transfertlar** | **165 394 270** |

Xalq deputatlari Amudaryo tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-56-134-13-181-K/22-son qaroriga
2-ilova

# Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy budjetining 2023-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

| Ko‘rsatkichlar | | Amudaryo tumani |
|---|---|---|
| | **Xarajatlar - jami** | **242 932 688,00** |
| **1.** | **Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami** | **173 992 926,00** |
| | *shu jumladan:* | |
| 1.1 | Maorif | 35 183 222,00 |
| | - maktabgacha ta’lim | 14 730 841,00 |
| | - umumiy ta’lim | 20 452 381,00 |
| | - kadrlar tayyorlash | |
| 1.2 | Sog‘liqni saqlash | 31 614 049,00 |
| 1.3 | Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar | |
| 1.4 | Madaniyat | 2 218 000,00 |
| 1.5 | Sport | 4 168 000,00 |
| 1.6 | Fan | |
| 1.7 | Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar | 100 720 286,00 |
| 1.14 | Fuqarolarga yetkazilgan zararni koplash | |
| 1.16 | Ijtimoiy ko‘nikma markazlari | 89 369,00 |
| **2.** | **Iqtisodiyotga xarajatlar** | **26 614 942,00** |
| | *shu jumladan:* | |
| 2.1 | Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari | 3 000 000,00 |
| 2.2 | O‘simliklar karantini inspeksiyalari xarajatlari | |
| 2.3 | Obodonlashtirish | 14 705 989,00 |
| 2.9 | Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari | 4 682 066,00 |
| 2.10 | O‘rmon xo‘jaligi tashkilotlari | |
| 2.11 | Davlat ekologiya qo‘mitasining hududiy boshqarmalari | |
| 2.12 | Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari | 1 038 035,00 |
| 2.13 | Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasining hududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari | |
| 2.14 | Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining xududiy bo‘limlarini saqlash xarajatlari | |
| 2.15 | Veterinariya qo‘mitasi | 1 591 880,00 |
| 2.16 | Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash | |
| 2.16 | Umum foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash va ekspluatatsiya xarajatlari | |
| 2.17 | Avtobus yo‘nalishlarining yillik subsidiyalash xarajatlari | |
| 2.18 | Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlari | 1 596 972,00 |

| | | |
|---|---|---|
| **3.** | **Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar** | **0,00** |
| **4.** | **Davlat boshqaruv organlarini saqlash** | **20 162 386,00** |
| **5.** | **Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash** | **8 411 527,00** |
| **6.** | **Zahira jamg‘armasi** | **2 291 818,00** |
| **7.** | **Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi** | **11 459 089,00** |
| **8.** | **Boshqa xarajatlar** | |
| | *shu jumladan:* | |
| 8.1 | Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar | |
| 8.1 | Issiq suv va sovuq suv xarajatlarini indeksatsiyalash | |
| 8.2 | Advokatlik xizmatlari xarajatlari | |
| 8.3 | Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari | |
| 8.4 | Prezident maktablarini qurish uchun jalb etilgan qarz mablag‘larini qaytarish xarajatlari | |

Xalq deputatlari Amudaryo tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-56-134-13-181-K/22-son qaroriga
3-ilova

# 2023-yil uchun tuman budjeti daromadi va xarajati prognoz ko‘rsatkichi

*ming. so‘mda*

| № | Hududlar nomi | Daromad | Xarajat |
|---|---|---|---|
| | **Jami** | **77 538 418,0** | **242 932 688,0** |
| 1 | Amudaryo tumani | 77 538 418,0 | 242 932 688,0 |

Xalq deputatlari Amudaryo tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-56-134-13-181-K/22-son qaroriga
4-ilova

# Amudaryo tumani byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori

*ming. so‘mda*

| № | **Hudud nomi** | **Tartibga soluvchi transfert miqdori** |
|---|---|---|
| | **Jami** | **165 394 270,0** |
| 1 | Amudaryo tumani | 165 394 270,0 |

Xalq deputatlari Amudaryo tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-56-134-13-181-K/22-son qaroriga
5-ilova

# 2023-yil uchun Amudaryo tumani hokimligining Zaxira jamg‘armasi mablag‘i miqdori

*ming. so‘mda*

| № | Hududlar nomi | Miqdori |
|---|---|---|
| | **Jami** | **2 291 818,0** |
| 1 | Amudaryo tumani | 2 291 818,0 |

Xalq deputatlari Amudaryo tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-56-134-13-181-K/22-son qaroriga
6-ilova

# 2023-yil uchun Amudaryo tumani mahalliy budjeti Aylanma kassa mablag‘i miqdori(AKM)

*ming. so‘mda*

| № | Hududlar nomi | Miqdori |
|---|---|---|
| | **Jami** | **1 482 000,0** |
| 1 | Amudaryo tumani | 1 482 000,0 |

Xalq deputatlari Amudaryo tuman Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-56-134-13-181-K/22-son qaroriga
7-ilova

## Umumdavlat soliqlaridan Amudaryo tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori*

*(Foiz hisobida)*

| T/r | Tuman nomi | Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i | Aylanmadan olinadigan soliq | Jismoniy shaxslar yer solig‘i | Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i | Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | Ijara to‘lovi | Aksiz solig‘i: benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq | Yuridik shaxslar yer solig‘i | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno) | Yig‘imlar | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Tumanning mahalliy byudjetiga boshqa tushumlari |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Amudaryo tumani | | 100 | | | | | | 100 | | | 100 | |

*Qonunga ko‘ra boshqa majburiy to‘lovlar viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o‘rtasida quyidagi ajratmalar asosida taqsimlanadi.